


## BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-oktabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 657,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 349,2 mln. AQSh dollariga yoki 34,7 % ga kamaydi.

TASHQI SAVDO  
AYLANMASI VA  
BALANSI  
(yanvar-  
oktabr, mln.  
AQSh dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**BUXORO  
VILOYATI BILAN  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
ENG YUQORI  
ULUSHGA EGA  
BO`LGAN  
DAVLATLAR  
(2020- yil  
yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari, ulushi,  
% da)**

TSA da eksport hajmi 184,8 mln. AQSh dollariga (17,1 % ga kamaydi) va import hajmi 472,8 mln. AQSh dollariga (39,7 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -288,0 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	182,1	27,4	154,7	27,7
Xitoy Xalq Respublikasi	90,3	6,0	84,3	13,7
Turkmaniston	77,4	4,5	72,9	11,8
Eron Islom Respublikasi	71,3	60,0	11,3	10,8
Turkiya	58,0	10,1	47,9	8,8
Qozog`iston	44,3	10,9	33,4	6,7
Koreya Respublikasi	23,2	0,2	23,0	3,5
Afg`oniston	20,0	19,9	0,1	3,0
Qirg`iz Respublikasi	19,3	19,0	0,3	2,9
Germaniya	14,5	0,3	14,2	2,2

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Viloyatimizda, jahonning 60 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (27,7 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,7 %), Turkmaniston (11,8 %), Eron Islom Respublikasi (10,8 %), Turkiya (8,8 %), Qozog`iston (6,7 %), Koreya Respublikasi (3,5 %) Afg`oniston (3,0 %), Qirg`iz Respublikasi (2,9 %) va Germaniya (2,2 %) davlatlarida qayd etilgan.

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Turkmaniston va Qozog`iston bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qozog`iston, Afg`oniston, Qirg`iz Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Eron Islom Respublikasi (48,7 mln. AQSh dollari), Afg`oniston (19,8 mln. AQSh dollari), Qirg`iz Respublikasi (18,7 mln. AQSh dollari), Polsha (5,4 mln. AQSh dollari), Tojikiston (5,6 mln. AQSh dollari) va Estoniya (1,2 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**BUXORO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)**

Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>252,9</b>	<b>227,9</b>	<b>182,1</b>
Eksport	17,4	25,9	27,4
Import	235,5	202,0	154,7
Saldo	- 218,1	- 176,1	- 127,3
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>95,0</b>	<b>180,4</b>	<b>90,3</b>
Eksport	19,5	26,0	6,0
Import	75,5	154,4	84,3
Saldo	- 56,0	- 128,4	- 78,3
<b>Turkmaniston</b>	<b>124,3</b>	<b>219,3</b>	<b>77,4</b>
Eksport	2,3	5,2	4,5
Import	122,0	214,1	72,9
Saldo	- 199,7	- 235,9	- 68,4
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>75,0</b>	<b>78,8</b>	<b>71,3</b>
Eksport	52,9	50,6	60,0
Import	22,1	28,2	11,3
Saldo	30,8	78,8	48,7
<b>Turkiya</b>	<b>16,6</b>	<b>47,1</b>	<b>58,0</b>
Eksport	1,2	6,0	10,1
Import	15,4	41,1	47,9
Saldo	- 14,2	- 35,1	- 37,8
<b>Qozog`iston</b>	<b>30,0</b>	<b>35,8</b>	<b>44,3</b>
Eksport	19,0	20,9	10,9
Import	11,0	14,9	33,4
Saldo	8,0	6,0	- 22,5
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>7,1</b>	<b>53,8</b>	<b>23,2</b>
Eksport	0,6	0,4	0,2
Import	6,5	53,4	23,0
Saldo	- 5,9	- 53,0	- 22,8

2020-yil  
yanvar-oktabr

BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

**BUXORO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)**


Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Afg`oniston</b>	<b>4,5</b>	<b>37,6</b>	<b>20,0</b>
Eksport	4,4	37,4	19,9
Import	0,1	0,2	0,1
Saldo	4,3	37,2	19,8
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>6,5</b>	<b>29,3</b>	<b>19,3</b>
Eksport	5,5	29,2	19,0
Import	1,0	0,1	0,3
Saldo	4,5	29,1	18,7
<b>Germaniya</b>	<b>18,8</b>	<b>24,8</b>	<b>14,5</b>
Eksport	-	-	0,3
Import	18,8	24,8	14,2
Saldo	- 18,8	- 24,8	- 13,9
<b>Polsha</b>	<b>1,5</b>	<b>3,9</b>	<b>6,7</b>
Eksport	0,6	1,9	6,1
Import	1,0	2,0	0,6
Saldo	- 0,4	- 0,1	5,5
<b>Tojikiston</b>	<b>2,0</b>	<b>3,3</b>	<b>6,0</b>
Eksport	1,5	2,4	5,8
Import	0,5	0,9	0,2
Saldo	1,0	1,5	5,6
<b>Ukraina</b>	<b>9,4</b>	<b>9,2</b>	<b>5,3</b>
Eksport	0,7	2,0	2,3
Import	8,7	7,2	3,0
Saldo	- 8,0	- 5,2	- 0,7
<b>Italiya</b>	<b>3,3</b>	<b>0,9</b>	<b>5,0</b>
Eksport	0,1	-	0,2
Import	3,2	0,9	4,8
Saldo	- 3,1	- 0,9	- 4,6

**BUXORO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)**

Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>9,8</b>	<b>4,3</b>	<b>4,0</b>
Eksport	0,3	0,5	0,3
Import	9,5	3,8	3,7
Saldo	- 9,2	- 3,3	- 3,4
<b>Ozarbajjon</b>	<b>0,4</b>	<b>0,5</b>	<b>2,6</b>
Eksport	0,4	0,5	0,7
Import	-	-	1,9
Saldo	0,4	0,5	- 1,2
<b>Estoniya</b>	<b>-</b>	<b>0,1</b>	<b>2,2</b>
Eksport	-	0,1	1,7
Import	-	-	0,5
Saldo	-	0,1	1,2
<b>Belgiya</b>	<b>2,3</b>	<b>5,2</b>	<b>2,1</b>
Eksport	-	-	-
Import	2,3	5,2	2,1
Saldo	- 2,3	- 5,2	- 2,1
<b>Avstriya</b>	<b>0,5</b>	<b>0,5</b>	<b>2,0</b>
Eksport	-	-	-
Import	0,5	0,5	2,0
Saldo	- 0,5	- 0,5	- 2,0
<b>Litva</b>	<b>2,4</b>	<b>3,9</b>	<b>1,9</b>
Eksport	0,9	0,4	1,1
Import	1,5	3,5	0,8
Saldo	- 0,6	- 3,1	0,3

Viloyatimizda tashqi savdoni qoʻllab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 51,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019- yilning mos davriga nisbatan ulushi 0,8 % ga kamaygan.

**BUXORO  
VILOYATINING  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASIDA  
MDH  
MAMLAKATLARI  
VA BOSHQA  
XORIJIY DAV-  
LATLARNING  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, % da)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yil yanvar-oktabr oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan oshgan (0,8 % ga) va jami TSA dagi ulushi 48,1 % ni tashkil etdi.

## BUXORO VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-oktabr)

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda eksportyorlar soni 264 tani tashkil etib, ular tomonidan 184,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,6 % ni tashkil etib, ular asosan nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari (33,2 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (31,3 %) mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar (8,4 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.



XSST  
BO`YICHA  
EKSPORT  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr,  
ulushi, % da)

- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar



**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
EKSPORT TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr)**

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>184,8</b>	<b>71,1</b>	<b>113,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19,4	12,2	7,2	10,5	17,2	6,3
Ichimliklar va tamaki	1,3	1,3	-	0,7	1,8	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	61,3	5,0	56,3	33,2	7,1	49,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	15,5	1,2	14,3	8,4	1,7	12,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,7	1,9	1,9	2,0	2,6	1,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,5	2,2	0,2	1,3	3,2	0,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	57,8	28,9	28,9	31,3	40,7	25,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,3	0,2	-	0,1	0,3	-
Turli xil tayyor buyumlar	14,9	14,2	0,7	8,1	20,0	0,6
Xizmatlar	8,2	4,0	4,2	4,4	5,6	3,7

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan,

MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hissasiga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari to'g'ri kelmoqda.

XSST tarkibi	2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>82,9</b>	<b>81,6</b>	<b>83,7</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	38,1	31,3	60,4
Ichimliklar va tamaki	184,4	184,4	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	87,3	65,0	90,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	43,7	40,4	43,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	40,4 b.	20,1 b.	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	157,4	152,1	248,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	141,1	127,8	157,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	31,3	68,0	4,8
Turli xil tayyor buyumlar	2,4 b.	3,4 b.	35,0
Xizmatlar	51,5	49,4	53,7

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O'SISH  
SUR'ATLARI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr)**

2020- yil yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan,

ichimliklar va tamaki, hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar guruhlarida o`shish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
% da)**

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16,6	22,9	10,5
Ichimliklar va tamaki	0,4	0,3	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	54,7	31,5	33,2
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	2,6	15,9	8,4
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	0,8	-	2,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	14,0	0,7	1,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	-	18,4	31,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1,2	0,4	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	9,6	2,8	8,1
Xizmatlar	16,6	7,1	4,4



BUXORO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI



**XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr)**

	Mln. AQSh dollari	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	12,6	34,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,3	37,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,1	2,0
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	0,1	9,6 b.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	1,2	2,0 b.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,1	192,5
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari</b>		
To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,7	175,0
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,3	38,2
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Qog`oz massasi va makulatura	-	-
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	0,1	7,3
<b>Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun`iy gaz	-	-
Elektr toki	-	-
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar	15,5	43,6
<b>Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar</b>		
O`simlik moylari va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	3,7	40,4 b.
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar</b>		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,5	185,8
Noorganik kimyo moddalari	0,1	6,3 b.
O`g`itlar	0,5	9,8 b.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,2	33,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,2	-
<b>Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari</b>		
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	66,2	163,9
Rangli metallar	-	-

2020-yil  
yanvar-oktabr


BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

**XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr)**

Cho`yan va po`lat	-	-
Metaldan tayyorlangan buyumlar	1,4	4,7 b.
Ruda bo`limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	0,1	33,3
Sanoat uchun maxsus bo`limgan mashinalar va ularning detallari	0,1	-
Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar	-	-
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	12,9	4,2 b.
Poyabzal	0,2	37,6
Har xil tayyor buyumlar	2,1	92,1
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Yo`l anjomlari, sumkalar va shunga o`xshash buyumlar	-	-
<b>Boshqa tovarlar</b>		
Maxsus operatsiyalar va turlariga ko'ra tasniflanmagan tovarlar	-	-
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	4,7	66,2
Safarlar (turizm)	1,9	31,1
Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari	-	-
Moliya xizmatlari	1,0	50,0
Boshqa biznes xizmatlari	0,6	100,0

2020- yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yil yanvar-oktabrdagi 39,0 % dan 2020- yil yanvar-oktabrida 38,5 % ni tashkil etdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 61,5 % ni tashkil etdi.


MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, % da)



2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Eron Islom Respublikasi (eksport umumiy hajmining 32,6 %), Rossiya Federatsiyasi (14,9 %), Afg'oniston (10,8 %), Qirg'iz Respublikasi (10,3 %), Qozog'iston (6,0 %) va Turkiya (5,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 79,7 % ni tashkil etmoqda. Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Afg'onistonning bir pog'onaga tushishi hisobiga, Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti geografiyasiga 2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sezildi.


VILOYAT  
EKSPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr,  
% da)



BUXORO  
VILOYATINING  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLARGA  
AMALGA  
OSHIRGAN  
EKSPORTI HAJMI  
VA O`SISH  
SUR`ATLARI  
(yanvar-oktabr)

Davlatlar	Mln.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil
Eron Islom Respublikasi	50,6	60,0	85,7	118,6	1	1
Rossiya Federatsiyasi	25,9	27,5	148,9	106,2	5	2
Afg'oniston	37,4	19,9	8,5 b.	53,2	2	3
Qirg'iz Respublikasi	29,2	19,0	5,3	65,1	3	4
Qozog'iston	20,9	10,9	110,0	52,1	6	5
Turkiya	6,0	10,1	5,0 b.	168,3	7	6
Polsha	1,9	6,1	3,2 b.	3,2 b.	11	7
Xitoy	26,0	6,0	133,3	23,1	4	8
Tojikiston	2,4	5,8	160,0	2,4 b.	9	9
Turkmaniston	5,2	4,5	2,3 b.	86,5	8	10
Ukraina	2,0	2,3	2,8 b.	115,0	10	11
Estoniya	0,1	1,7	-	17,0 b.	25	12
Litva	0,4	1,1	44,4	2,7 b.	22	13
Bosniya va Gersogovinna	-	0,8	-	-	-	14
Singapur	1,0	0,8	2,5 b.	80,0	14	15
Ozarbayjon	0,5	0,7	166,7	140,0	17	16
Latviya	0,1	0,6	-	6,0 b.	26	17
Pokiston	0,4	0,6	133,3	150,0	19	18
Iroq	-	0,4	-	-	28	19
Belarus	0,5	0,3	166,7	6,6 b.	16	20

**XIZMATLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(yanvar-oktabr,  
ulushi, % da)**



Xizmatlar eksporti hajmi 8,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 4,4 % ini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 48,5 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (57,4 %) va turizm (22,9 %) xizmatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Moliyaviy xizmatlar (12,4 %) va boshqa xizmatlar umumiy hajmda 7,3 % ni tashkil etgan.


Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 12,6 mln. dollar qiymatli 27,1 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan 28,1 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatildi.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI**

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 7,1 mln. AQSh dollariga teng 19,6 ming tonna sabzavot, shuningdek, 5,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi 7,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 6,8 % ni tashkil etdi.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI  
(2020- yil  
yanvar-  
oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (39,7 %), Rossiya Federatsiyasi (35,7 %), Xitoy Xalq Respublikasi (8,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

MEVA -  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARINING  
EKSPORT  
GEOGRAFIYASI  
(yanvar-oktabr)

Davlatlar	2019- yil			2020- yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
<b>Qozog`iston</b>	52,5	17,3	21,3	16,5	5,0	39,7
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	1,8	1,1	1,3	6,2	4,5	35,7
<b>XXR</b>	2,7	2,1	2,6	1,4	1,1	8,7
<b>Ukraina</b>	5,1	1,0	1,2	1,5	0,8	6,4
<b>Qirg`iz Respublikasi</b>	4,1	17,8	21,9	0,5	0,4	3,2
<b>Afg`oniston</b>	0,3	0,01	0,01	0,4	0,3	2,4
<b>Belarus</b>	0,4	0,2	0,2	0,1	0,1	0,8
<b>Boshqa davlatlar</b>	68,0	41,9	51,5	0,5	0,4	3,1

\*-qiymat ifodasidan

TO`QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 67,3 mln. AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 36,4 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan, 1,5 b. ga ko`paygan.



**TO`QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)**

Tovar nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	4,0	4,1	12,2
Gilamlar	0,3	0,2	0,3
Boshqa to`qimachilik mahsulotlari	2,8	2,7	2,8
Paxtadan gazlamalar	14,9	32,9	49,1
Ipak va ipak mahsulotlari	4,7	5,2	2,0

Viloyatning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

**DAVLATLAR  
KESIMIDA  
TO`QIMACHI-  
LIK MAHSULO-  
LARI EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar-oktabr,  
mln. AQSh  
dollari)**


Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Rossiya Federatsiyasi	10,8	17,4	19,8
Qirg`iz Respublikasi	1,2	3,1	10,9
Eron Islom Respublikasi	58,6	9,0	8,2
Turkiya	1,6	5,8	8,3

## BUXORO VILOYATINING IMPORTI (2020- yil yanvar-oktabr)

2020- yil yanvar-oktabr oylarida import hajmi 472,8 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 60,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash mahsulotlar (41,5 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (23,0 %), Turli xil tayyor buyumlar (10,6 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (9,3 %) hisobiga to`g`ri keldi.

XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
IMPORT TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr,  
ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-oktabrida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 311,1 mln. AQSh dollariga kamaydi va 472,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>472,8</b>	<b>270,3</b>	<b>202,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	17,0	14,3	2,7	3,6	5,3	1,4
Ichimliklar va tamaki	0,1	-	0,1	-	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	18,0	15,0	3,0	3,8	5,5	1,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	196,3	194,7	1,5	41,5	72,0	0,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,5	0,5	-	0,1	0,2	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	44,1	16,6	27,5	9,3	6,1	13,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	37,0	21,1	15,9	7,8	7,8	7,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	108,7	7,2	101,5	23,0	2,6	50,1
Turli xil tayyor buyumlar	50,3	1,0	49,4	10,6	0,4	24,4
Xizmatlar	0,8	-	0,8	0,2	-	0,4

Importning eng katta ulushi, jumladan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (72,0 %), Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (7,8 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga

**MDH VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORTNING  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr)**

o`xshash, mahsulotlar (6,1 %), Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari (5,5 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush asosan mashina va transport asbob-uskunalar (50,1 %), Turli xil tayyor buyumlar (24,4 %), hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari (13,6 %) hissasiga to`g`ri keladi.

XSST tarkibi	2019- yil yanvar-oktabriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>60,3</b>	<b>61,0</b>	<b>59,4</b>
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	102,3	107,0	83,3
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	138,6	127,3	2,5 b.
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	53,3	52,9	3,0 b.
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	3,3 b.	3,3 b.	21,3 b.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	118,0	152,5	103,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	71,4	89,2	56,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	54,0	54,0	54,0
Turli xil tayyor buyumlar	53,2	44,4	53,4
Xizmatlar	129,4	-	129,4

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar 3,3 b. ga, Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari 38,6 % ga oshdi.

**XSTT BO`YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr  
2019- yil  
yanvar-  
oktabrga  
nisbatan, % da)**

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,2	0,6	0,6
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	13,6	19,2	20,7
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	56,8	47,0	41,5
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	0,1	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	6,1	5,4	10,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	0,7	0,6	1,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	22,3	27,0	25,2
Turli xil tayyor buyumlar	0,1	-	0,1
Xizmatlar	0,1	0,1	0,2

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o`zgarish sura`tlari, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,9	62,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,7	17,1 b.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,4	-
Sabzavotlar va mevalar	0,1	17,3
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	-	-
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	0,1	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari</b>		
Metall rudalari va metal parchalari To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	-	-
Probka va yog`och-taxtalar	14,6	139,4
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	0,2	9,2
O`g`itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	8,9	3,4 b.
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,4	-
<b>Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar	196,3	53,3



**BUXORO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**XSTT BO`YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2020- yil  
yanvar-oktabr  
2019- yil  
yanvar-  
oktabrga  
nisbatan, % da)**

Ko`mir, koks va briketlar	-	-
Elektr toki	-	-
<b>Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar</b>		
O`simlik moylari va yog`lari	0,5	3,0 b.
Hayvon va o`simlik moylari va yog`lari	-	-
Hayvonlar moylari va yog`lari	-	-
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,6	147,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	13,1	96,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	5,2	65,8
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,3	90,1
Organik kimyo moddalari	4,5	89,4
<b>Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari</b>		
Cho`yan va po`lat	-	-
Metalldan tayyorlangan buyumlar	12,1	71,0
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	5,8	123,4
Probka va yog`ochdan tayyorlangan buyumlar	-	-
Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar	-	-
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	-	-
Avtomobillar, asosan yo`lovchilarni tashish uchun mo`ljallangan avtoulavlari (10 va undan ortiq kishini tashishga mo`ljallangan transport vositalaridan tashqari)	-	-
Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	5,9	64,1
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	-	-
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Blokli binolar, suv o`tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	-	-
Har xil tayyor buyumlar	0,4	157,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o`xshash mahsulotlar	42,2	49,8
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	-	-
<b>Boshqalar</b>		
Maxsus operatsiyalar va turlarga ko`ra tasniflanmagan tovarlar	-	-


**2020-yil  
yanvar-oktabr**

**BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI**

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga sabzavot va mevalar (82,7 % ga pasaygan), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (38,0 % ga) importining kamayishi ta`sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar (34,2 %) hamda organik kimyo moddalari (10,6 %) bevosita ta`sir etgan.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLAT-  
LARDAN TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-  
oktabr,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulush % da)**



Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 32,7 % ulushi bilan Xitoy Xalq Respublikasini (17,8 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.


**TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTIDAGI  
YIGIRMATA  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
(yanvar-  
oktabr)**

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O`shish sur`ati, % da		O`rni	
	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil
Rossiya Federatsiyasi	202,0	154,7	85,8	76,6	2	1
Xitoy Xalq Respublikasi	154,4	84,3	2,0 b.	54,6	3	2
Turkmaniston	214,1	72,9	175,5	34,0	1	3
Turkiya	41,1	47,9	2,7 b.	116,5	5	4
Qozoqiston	14,9	33,4	134,2	2,2 b.	8	5
Koreya Respublikasi	53,5	23,0	8,1 b.	43,0	4	6
Germaniya	24,8	14,2	132,6	57,3	7	7
Eron Islom Respublikasi	28,2	11,3	178,5	40,1	6	8
Italiya	0,9	4,8	28,1	5,3 b.	14	9
Belarus	3,8	3,7	40,0	97,4	27	10
Ukraina	7,2	3,0	81,8	41,7	11	11
Belgiya	5,2	2,1	2,3 b.	40,4	13	12
Avstriya	0,5	2,0	100,0	4,0 b.	33	13
Ozarbayjon	-	1,9	-	-	32	14
Iroq	-	1,1	-	-	52	15
Hindiston	2,8	1,0	4,7 b.	35,7	18	16
Gonkong	0,3	1,0	-	3,3 b.	38	17
Litva	3,6	0,8	2,4 b.	22,2	16	18
Fransiya	1,1	0,8	157,1	72,7	25	19
BAA	2,1	0,8	3,5 b.	38,1	19	20

2020- yil yanvar-oktabr bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatildi.

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha viloyatda 58 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

VILOYAT  
IMPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020- yil  
yanvar- oktabr,  
% da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston, Turkiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi va Germaniya) jami importning 91,0 % ini tashkil qiladi, bu 430,4 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi.

Tel.:65-223-75-63